



UDK: 614.2:316.6

Qalbyor B. AZAMALIYEV,
Mustaqil izlanuvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston
E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com, Orcid: 0009-0000-9311-7002

Farg'ona davlat universiteti professori I.Siddiqov taqrizi asosida

TIBBIY MADANIYAT VA PROFILAKTIK XULQ-ATVOR: O'ZBEKISTON MISOLIDA IJTIMOIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada tibbiy madaniyat bilan profilaktik xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlik O'zbekiston materiallari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot milliy normativ-huquqiy hujjatlar hamda ochiq axborot manbalarining kontent-tahliliga asoslanadi. Tahlil natijasida targ'ibot tadbirlarining miqdori bilan aholining haqiqiy profilaktik xulq-atvori o'rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjudligi aniqlandi: davlat hujjatlarining o'zida targ'ibot ishlarining «faqat miqdoriy ahamiyatga ega» ekani e'tirof etilgan, qandli diabet bo'yicha ma'lumotlar esa kasallikning katta qismi aniqlanmay qolayotganini ko'rsatadi. Shu asosda targ'ibot samaradorligini tadbirlar soni bilan emas, xulq-atvor o'zgarishi ko'rsatkichlari bilan o'lchash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Tibbiy madaniyat, tibbiy savodxonlik, profilaktik xulq-atvor, skrining, yuqumli bo'lmagan kasalliklar, sog'lom turmush tarzi, targ'ibot samaradorligi, xulq-atvor ko'rsatkichlari.

МЕДИЦИНСКАЯ КУЛЬТУРА И ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ПОВЕДЕНИЕ: СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье анализируется связь между медицинской культурой и профилактическим поведением населения на материалах Узбекистана. Исследование основано на контент-анализе национальных нормативно-правовых актов и открытых информационных источников. Выявлено существенное несоответствие между количеством просветительских мероприятий и реальным профилактическим поведением населения: в самих государственных документах признаётся, что проводимая работа имеет «лишь количественное значение», а данные по сахарному диабету показывают, что значительная часть заболеваний остаётся невыявленной. На этой основе обосновывается необходимость измерять эффективность просвещения не числом мероприятий, а показателями изменения поведения.

Ключевые слова: Медицинская культура, медицинская грамотность, профилактическое поведение, скрининг, неинфекционные заболевания, здоровый образ жизни, эффективность просвещения, поведенческие индикаторы.

MEDICAL CULTURE AND PREVENTIVE BEHAVIOR: SOCIAL ANALYSIS ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN

Annotation

The article analyses the relationship between health culture and preventive behaviour using material from Uzbekistan. The study is based on content analysis of national normative legal acts and open information sources. A substantial mismatch was identified between the volume of awareness activities and the actual preventive behaviour of the population: state documents themselves acknowledge that such work has «only quantitative significance», while data on diabetes show that a large share of cases remains undiagnosed. On this basis the article argues that the effectiveness of health promotion should be measured not by the number of events held, but by indicators of behavioural change.

Key words: Health culture, health literacy, preventive behaviour, screening, noncommunicable diseases, healthy lifestyle, promotion effectiveness, behavioural indicators.

Kirish. Aholi salomatligini saqlashda tibbiyot xizmatining sifati qanchalik muhim bo'lsa, insonning o'z salomatligiga munosabati ham shunchalik ahamiyatlidir. Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning asosiy xavf omillari – noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning pastligi, tamaki va spirtli ichimliklar iste'moli – shifoxona ichida emas, kundalik turmushda shakllanadi[1]. Demak, ularni bartaraf etish sog'liqni saqlash tizimining quvvatiga emas, avvalo aholining o'z xulq-atvoriga bog'liq.

Muhim jihat shundaki, «tibbiy madaniyat» va «tibbiy savodxonlik» tushunchalari O'zbekiston normativ hujjatlariga allaqachon kirgan. Yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasida yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish alohida yo'nalish sifatida belgilangan[2]; hujjatda tibbiy madaniyat, xususan shaxsiy gigiyena va ratsional ovqatlanish bo'yicha targ'ibotni kuchaytirish vazifasi qo'yilgan. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi

to'g'risidagi nizomda esa «aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish» qo'mita vazifalari qatoriga kiritilgan[3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Manbalar uch guruhdan iborat. Birinchi guruh – O'zbekiston Respublikasining ochiq huquqiy axborot tizimida (Lex.uz) joylashtirilgan normativ hujjatlar: Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari. Ikkinchi guruh – ochiq axborot manbalari (Gazeta.uz, Zamin.uz) materiallari. Uchinchi guruh – xalqaro tashkilotlarning o'zbek tilidagi nashrlarda keltirilgan ma'lumotlari.

Qo'llanilgan usullar: hujjatlar kontent-tahlili; miqdoriy ko'rsatkichlarni qiyoslash; mantiqiy tahlil va umumlashtirish. Tadqiqotning cheklovi shundaki, xulosalar ochiq manbalarda e'lon qilingan ma'lumotlarga tayanadi va aholi so'rovi orqali tekshirishni talab qiladi.

Natija va muhokama. Eng ko'rsatkichli dalil davlat hujjatining o'zida keltirilgan. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar

profilaktikasi bo'yicha qabul qilingan konsepsiyada shunday deyiladi[4]: mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar faqat miqdoriy va statistik ahamiyatga ega bo'lib, 2017-yilda 200 mingdan ortiq tadbir o'tkazilgan, lekin ular samarali va ta'sirchan natija bermagan.

Hujjatda kamchilikning sababi ham ko'rsatilgan: axborot-ma'rifiy kompaniyalar qisqa davom etadi va muntazam ravishda o'tkazilmaydi. Bu – juda muhim e'tirof. U targ'ibotning miqdori bilan uning uzluksizligi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi: bir yilda 200 ming tadbir o'tkazish mumkin, ammo ularning har biri qisqa muddatli bo'lsa, xulq-atvor odati shakllanmaydi. Odat esa takrorlanish orqali qaror topadi.

Bundan birinchi natija kelib chiqadi: targ'ibot samaradorligini tadbirlar soni bilan o'lchash metodik jihatdan asossizdir, chunki bu ko'rsatkich xulq-atvor o'zgarishi haqida hech qanday ma'lumot bermaydi.

Ikkinchi dalil aniq kasallik misolida ko'rinadi. Xalqaro diabet federatsiyasining 2021-yilgi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda kattalarning 6,3 foizida qandli diabet mavjud[5]. Ayni paytda Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotida 2019-yilda 230 610 kishi, 2021-yilda esa 245 mingdan ortiq kishi ushbu tashxis bilan ro'yxatga olingani keltiriladi – bu mamlakat aholisining bir foiziga ham yetmaydi.

Ikki raqam o'rtasidagi farq tasodifiy emas. IDF Atlas ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonda diabet tashxisi qo'yilmagan aholi ulushi 74 foizni tashkil etgan. Ya'ni kasallikka chalingan har to'rt kishidan uchasi o'zida diabet borligini bilmaydi.

Ushbu ko'rsatkichning ahamiyati shundaki, u tibbiyot texnologiyasining emas, aynan profilaktik xulq-atvorning holatini o'lchaydi. Qandli diabetning ikkinchi turini aniqlash uchun murakkab jihoz talab etilmaydi – oddiy qon tahlili yetarli. Demak, 74 foizlik bo'shliq tashxis vositasining yo'qligidan emas, odamlarning o'z vaqtida tekshiruvdan o'tmasligidan kelib chiqadi. Bu esa bevosita tibbiy madaniyat masalasidir: inson o'zini sog'lom his qilganda ham profilaktik tekshiruvdan o'tish zarurligini anglashi kerak.

Uchinchi natija davlat siyosatining o'zida yondashuv o'zgarayotgani. Sirdaryo viloyatida sinovdan o'tkazilgan yangi modelda profilaktik ko'riklar o'rniga hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan kasalliklar bo'yicha maqsadli skrining tekshiruvlarini o'tkazish nazarda tutilgan[6]. Bu ommaviy va yuzaki ko'rikdan aniq nishonli tekshiruvga o'tish demakdir.

Xuddi shu yo'nalishda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida davlat budjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ustuvor tartibda profilaktika tadbirlarini qamrab olishi hamda o'lim va nogironlik ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi kasalliklarning oldini olishga yo'naltirilishi belgilangan[7].

Resurs jihatidan ham sezilarli o'zgarish bor: 2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan, tuman va shahar shifoxonalarida yangi diagnostika hamda davolash usullari joriy etilmoqda[8]. Aholiga smartfon va mobil ilovalar yordamida o'z sog'lig'i va ovqatlanishini nazorat qilishni o'rgatish vazifasi ham qo'yilgan[9].

Bundan uchinchi natija kelib chiqadi: infratuzilma va moliyaviy resurs o'sib bormoqda, biroq ularning samarasi aholining ushbu imkoniyatlardan foydalanish tayyorligiga bog'liq. Skrining dasturi qanchalik yaxshi tashkil etilmasin, agar odam unga bormasa, natija bermaydi. Aynan shu nuqtada tibbiy madaniyat hal qiluvchi omilga aylanadi. Yaqinda qabul qilingan yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasiga oid hujjatda targ'ibotning aniq shakllari – ijtimoiy rolilar, infografika hamda savdo markazlari yaqinidagi bilbordlar – belgilangani shundan dalolat beradi[10].

Tahlil natijalari bir mantiqiy zanjirni ko'rsatadi. Targ'ibot tadbirlari ko'p o'tkaziladi, ammo ular qisqa muddatli bo'lgani uchun odat shakllantirmaydi; odat shakllanmagani uchun profilaktik xulq-atvor qaror topmaydi; xulq-atvor qaror topmagani uchun esa kasallikning katta qismi aniqlanmay qoladi. Diabet bo'yicha 74 foizlik bo'shliq shu zanjirning oxirgi bug'inidir.

Bu yerdan muhim metodik xulosa chiqadi. Hozirgi baholash tizimida asosiy ko'rsatkich – o'tkazilgan tadbirlar soni. Ammo bu ko'rsatkich jarayonni o'lchaydi, natijani emas. Samaradorlikni baholash uchun xulq-atvor ko'rsatkichlari kerak: profilaktik tekshiruvdan o'tganlar ulushi, skrining dasturlarida qatnashish darajasi, tashxis qo'yilmagan holatlar ulushining qisqarishi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha bazaviy o'lchov o'tkazilsa, targ'ibotning haqiqiy samarasini kuzatish mumkin bo'ladi.

Ikkinchi muhokama nuqtasi – targ'ibot kanallarining tanlovi. Davlat hujjatlarida ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining salohiyati to'liq ishlatilmayotganga o'xshaydi, holbuki ijtimoiy sheriklik sohalari qatoriga aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bevosita kiritilgan[11]. Mahallaning ustunligi ishonchda: qo'shning tavsiyasi ekrandagi ma'ruzadan ko'ra tez qabul qilinadi. Ayni paytda bu kanal tayyorgarlikni talab qiladi, aks holda noto'g'ri axborot ham xuddi shu tezlikda tarqaladi.

Uchinchi nuqta – yoshlar guruhi. Konsepsiyada 2020-yil sentabr holatiga giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi 5 889 nafar yosh ro'yxatda turgani qayd etilgan; hujjatda bunday holatlarning sabablari qatorida sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarning to'liq shakllanmagani ko'rsatiladi. Bu – tibbiy madaniyatning profilaktik funksiyasiga bevosita dalil.

Tadqiqotning cheklovini ochiq qayd etish lozim: xulosalar ochiq manbalar tahliliga asoslangan bo'lib, aholining tibbiy madaniyati darajasini bevosita o'lchovchi milliy so'rov ma'lumotlaridan foydalanilmagan. Shu bois ular empirik tekshiruvni talab qiladigan faraz maqomiga ega.

Xulosa. Birinchidan, «tibbiy madaniyat» va «tibbiy savodxonlik» tushunchalari O'zbekiston normativ hujjatlariga kirgan va davlat siyosatining tan olingan yo'nalishi hisoblanadi. Demak, muammo atamaning yo'qligida emas, uni amaliyotga aylantirish mexanizmidan.

Ikkinchidan, targ'ibot tadbirlarining miqdori bilan natijasi o'rtasidagi nomutanosiblik davlat hujjatining o'zida e'tirof etilgan: bir yilda 200 mingdan ortiq tadbir o'tkazilgani holda, ular samarali natija bermagan. Asosiy sabab sifatida kampaniyalarning qisqa muddatligi va muntazam emasligi ko'rsatilgan.

Uchinchidan, qandli diabet bo'yicha ma'lumotlar profilaktik xulq-atvordagi bo'shliqni aniq o'lchaydi: kasallikka chalinganlarning 74 foizida tashxis qo'yilmagan. Bu ko'rsatkich tashxis vositasining yo'qligini emas, odamlarning o'z vaqtida tekshiruvdan o'tmasligini aks ettiradi.

To'rtinchidan, davlat siyosatida ommaviy ko'rikdan maqsadli skriningga o'tish va profilaktikani birlamchi bo'g'inining kafolatlangan hajmlariga kiritish kabi ijobiy burilishlar mavjud. Biroq ushbu imkoniyatlarning samarasi aholining ulardan foydalanish tayyorligiga bog'liq.

Beshinchidan, targ'ibot samaradorligini o'tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, xulq-atvor ko'rsatkichlari bilan o'lchash zarur. Birinchi navbatdagi amaliy vazifa – profilaktik tekshiruvdan o'tganlar ulushi va tashxis qo'yilmagan holatlar ulushi bo'yicha bazaviy o'lchovni yo'lga qo'yish.

ADABIYOTLAR

1. Sog'lom turmush tarzi // Vikipediya (o'zbekcha). URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
2. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-yanvardagi PQ-23-son qaroriga 1-ilova // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-5234746>
3. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7350831>
4. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrda PQ-4063-son qarori // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-4111365>
5. «Odamni diabet emas, o'ziga nisbatan beparvolik va hurmatsizlik o'ldiradi» // Gazeta.uz, 2023-yil 29-noyabr. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/29/diabetes/>
6. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrda PQ-4890-son qarori // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5100699>
7. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-iyunda 382-son qarori // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7583058>
8. «Joriy yilda sog'liqni saqlash tizimida qanday yangiliklar kutilmoqda?» // Zamin.uz, 2025-yil 4-yanvar. URL: <https://zamin.uz/uz/jamiat/141924-zhorij-jilda-solini-salash-tizimida-andaj-jangiliklar-kutilmoda.html>
9. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevralda PF-27-son Farmoni // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>
10. O'tkir yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-yanvardagi PQ-20-son qarori // Lex.uz.
11. Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // Prezident matbuot xizmati. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7495>